



Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 175,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,8 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 221,9** mlrd. so'mni (**26,6 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 953,5** mlrd. so'mni (**9,1 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 071,5** mlrd. so'mni (**19,3 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 175,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **100,8** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida Shovot tumani va Urganch shahrida kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **83,0** % va yirik korxonalar hissasiga **17,0** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **36,8** % ulush bilan **2 642,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Xiva tumanida **1,7** % ulush bilan **120,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **5 953,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **9,1** % ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,0** % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Yangibozor (98,7 %), Gurlan (98,1 %), Yangiariq (97,7 %) va Hazorasp (97,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning ikkita hududida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur‘atlari kuzatilib, Urganch shahar (92,5 %), Shovot (95,7 %) tumanida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	7 175 421,5	100,8	1 221 904,9	73,4	5 953 516,6	109,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	2 642 038,3	92,5	1 026 837,4	72,3	1 615 200,9	112,5
Xiva	239 886,8	105,6	20 466,0	76,8	219 420,9	109,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	404 938,4	100,1	15 112,5	68,2	389 825,8	101,9
Gurlan	517 908,7	120,1	9 792,5	109,2	508 116,2	120,4
Qo‘shko‘pir	386 231,4	109,7	15 733,5	4,0 m.	370 497,8	106,4
Urganch	613 645,6	101,7	38 574,7	70,0	575 071,0	104,8
Hazorasp	686 521,2	112,3	20 364,7	100,2	666 156,5	112,8
Tuproqqal‘a	170 779,7	108,5	388,5	-	170 391,2	108,2
Xonqa	450 241,5	102,4	43 675,2	55,7	406 566,3	112,5
Xiva	120 509,4	109,6	3 736,0	3,2 m.	116 773,4	107,3
Shovot	478 311,6	95,7	18 152,5	94,5	460159,1	95,7
Yangiariq	302 229,6	109,0	6 952,3	87,5	295 277,2	109,7
Yangibozor	162 179,3	107,2	2 119,0	3,1 m.	160 060,2	106,3



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **26,6 %** ga kamaydi va **1 221,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 953,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **9,1 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **83,0 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Yangibozor (98,7 %), Gurlan (98,1 %), Yangiariq (97,7 %) va Hazorasp (97,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (38,9 %), Xonqa tumani (9,7 %), Xiva shahri (8,5 %) va Urganch tumani (6,3 %) da kuzatildi.



**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 826,3** ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,8** % ga kamaydi) ni tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Gurlan (118,4%), Hazorasp (110,6 %), Qo'shko'pir (108,0 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahar (91,4 %), Shovot (94,2 %), Bog'ot (98,4 %), Urganch (99,8 %) tumanlarida eng quyi ko'rsatkichlar kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (18 322,0 ming so'm), Hazorasp (3 544,2 ming so'm) va Gurlan (3 492,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	3 826,3	99,2
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	18 322,0	91,4
Xiva	2 593,4	104,1
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2 458,6	98,4
Gurlan	3 492,3	118,4
Qo'shko'pir	2 241,6	108,0
Urganch	3 086,7	99,8
Hazorasp	3 544,2	110,6
Tuproqqal'a	3 093,8	106,8
Xonqa	2 415,5	100,9
Xiva	827,1	107,7
Shovot	2 813,6	94,2
Yangiariq	2 603,2	107,4
Yangibozor	1 855,6	105,6


**UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

Asosiy tarkib, foizda




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 071,5** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **19,3** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʻjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **685,2** mlrd. soʻmni (oʻzgarish surʼati 98,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **386,3** mlrd. soʻmni (oʻzgarish surʼati 61,5 %) tashkil etdi.


Oʻsish (oʻzgarish) surʼatlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **685,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **386,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 071,5	80,7	685,2	98,0	386,3	61,5
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	222,9	81,0	154,0	149,4	68,9	40
Xiva	22,8	104,3	22,8	104,2	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	152,1	78,5	62,8	85,0	89,2	74,3
Gurlan	78,2	62,7	57,1	80,2	21,2	39,4
Qo'shko'pir	109,9	93,7	84,6	105,5	25,4	67,9
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	106,9	94,8	66,8	75,8	40,2	161,8
Tuproqqal'a	23,5	110,6	21,2	-	2,3	-
Xonqa	83,6	82,7	66,1	78,7	17,5	102,2
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	170,4	67,4	67,4	79,0	103,0	61,5
Yangiariq	61,2	92,4	47,3	100,5	13,9	72,3
Yangibozor	39,9	99,3	35,2	120,2	4,7	43,2

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



3,1
mlrd. so'm

Tuzlamalar



374,0
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



14,9
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

65,4
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



13,1
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

11,7
mlrd. so'm



Tuxum

103,9
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

19,8
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

15,8
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

58,5
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

5,1
mlrd. so'm



Ziravorlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **685,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**374,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarda joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **386,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **359,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **24,4** mlrd. so'mni, otlar **0,1** mlrd. so'mni, parrandalar **1,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,3 %** ni tashkil etib, **93,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **14,0 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **92,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	93,6	86,0	7,1	185,9	86,6	82,4
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	43,0	83,4	2,3	73,2	40,7	84,1
Xiva	4,7	66,1	-	-	4,7	66,1
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	3,1	88,3	-	-	3,1	88,3
Gurlan	2,4	77,6	-	-	2,4	77,6
Qo‘shko‘pir	1,5	82,0	-	-	1,5	82,0
Urganch	16,8	86,6	0,6	91,5	16,3	86,5
Hazorasp	4,5	69,7	-	-	4,5	69,7
Tuproqqal‘a	1,8	103,9	-	-	1,8	103,9
Xonqa	3,0	82,4	-	-	3,0	82,4
Xiva	2,6	82,9	-	-	2,6	82,9
Shovot	7,5	191,4	4,2	-	3,3	84,0
Yangiariq	1,0	82,9	-	-	1,0	82,9
Yangibozor	1,7	78,6	-	-	1,7	78,6

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 185,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **695,2** mlrd. so‘mni (**2,7 %** ga ko‘payish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 490,2** mlrd. so‘mni (**4,8 %** ga o‘shish) tashkil etdi.

O‘shish (o‘zgarish) sur‘atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

2 185,4 mlrd. so‘m, 100 %


Yirik korxonalar

695,2 mlrd. so‘m, 31,8 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

1 490,2 mlrd. so‘m, 68,2 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangibozor (22,2 m.), Yangiariq (17,7 m.) va Bog‘ot (15,9 m.) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o‘zgarish sur‘atlari Tuproqqal‘a (12,7 m.), Xiva (164,1 %) va Yangiariq (127,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	2 185 362,1	104,1	695 194,5	102,7	1 490 167,6	104,8
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 035 902,3	109,0	268 620,1	129,6	767 282,2	103,2
Xiva	76 899,7	106,8	641,0	41,8	76 258,6	108,2
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	41 197,9	120,9	109,4	15,9 m.	41 088,5	120,6
Gurlan	40 105,1	123,1	164,6	5,9 m.	39 940,4	122,7
Qo‘shko‘pir	16 266,7	76,3	126,0	8,0 m.	16 140,7	75,8
Urganch	433 911,2	62,5	201 591,2	43,3	232 320,0	101,6
Hazorasp	20 341,2	101,3	207,0	11,3 m.	20 134,3	100,3
Tuproqqal‘a	227 163,1	12,7 m.	209 790,1	-	17 373,0	97,4
Xonqa	95 236,9	108,6	13 327,0	4,5 m.	81 909,9	96,7
Xiva	93 581,0	164,1	218,8	4,5 m.	93 362,2	163,8
Shovot	36 019,2	93,2	41,8	40,6	35 977,4	93,3
Yangiariq	26 062,2	127,6	226,8	17,7 m.	25 835,4	126,6
Yangibozor	42 675,6	79,8	130,7	22,2 m.	42 544,9	79,6

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **1 490,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,8** % ga oshgan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **68,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shovot (99,9 %), Xiva (99,8 %), Bog'ot (99,7 %), Yangibozor (99,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Tuproqqal'a (7,6 %), Urganch (53,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 227-78-85